

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY
TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/26.05.2022.T.10.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI”
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**

TOJIBOYEVA SHAXZODA XOLDORJON QIZI

**YUZ TASVIRI ASOSIDA HIS-TUYG‘ULARNI TASNIFLASH
ALGORITMLARI**

05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
technical sciences**

Tojiboyeva Shaxzoda Xoldorjon qizi

Yuz tasviri asosida his-tuyg'ularni tasniflash algoritmlari.....3

Тожибоева Шахзода Холдоржон қизи

Алгоритмы классификации эмоций на основе изображений лиц.....21

Tojiboyeva Shakhzoda Kholdorjon qizi

Algorithms for emotion classification based on facial images.....39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published work.....43

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY
TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/26.05.2022.T.10.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI”
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**

TOJIBOYEVA SHAXZODA XOLDORJON QIZI

**YUZ TASVIRI ASOSIDA HIS-TUYG‘ULARNI TASNIFLASH
ALGORITMLARI**

05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/T5877 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universiteti hamda "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tiame.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Niyozmatova Nilufar A'loxanovna texnika fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim
Rasmiy opponentlar:	Radjabov Sobirjon Sattorovich texnika fanlari doktori, professor
	Mamaraufov Odil Abdilxamidovich texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	Namangan davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi «Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi DSc.03/26.05.2022.T.10.05 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy Kengashning 2025 yil «_____» _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100000, Toshkent shahri, M.Ulug'bek tumani, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy. Tel.: (99871) 237-09-75, faks: (99871) 237-54-79, e-mail: admin@tiame.uz, tiame@exat.uz).

Dissertatsiya bilan «Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100000, Toshkent shahri, M.Ulug'bek tumani, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy. Tel.: (99871) 237-09-86).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «_____» _____ kuni tarqatildi.

(2025 yil «_____» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi.)

N.S.Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy Kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

D.Q.Bekmuratov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy Kengash ilmiy kotibi,
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

S.S.Radjabov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy Kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi,
texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda inson-mashina intellektual tizimlarini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda his-tuyg'ularni tanib olish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. His-tuyg'ularni tanib olishda esa ma'lumotlarga dastlabki ishlov berish, qayta ishlash, tahlil qilish, tasniflash hamda tanib olish uchun tezkor va samarali model, usul va algoritmlarni ishlab chiqish hamda takomillashtirish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Hozirgi kunda AQSh, Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Buyuk Britaniya, Germaniya, Hindiston va Fransiya kabi davlatlarda his-tuyg'ularni tasniflash va tahlil qilishga oid signallarga raqamli ishlov berish, tanib olish va ularni sintezlash sohasidagi nazariy va amaliy masalalarni yechishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda his-tuyg'ularni ifoda etuvchi raqamli signallarga ishlov berish hamda ular asosida his-tuyg'ularni tasniflash algoritmlarini takomillashtirish va yaratishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar izchil olib borilmoqda. Ayniqsa, inson yuzi orqali his-tuyg'ularni tanib olish va tahlil qilish yo'nalishida Microsoft, Google, Affectiva, RealEyes, Visage Technologies, Sightcorp, Face++, Emotion Research Lab, Robotics kabi yirik kompaniya va korporatsiyalar yetakchilik qilmoqda. Ular sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalangan holda, his-tuyg'ularni aniqlash sifati va tezligini oshirishga, turli to'siqlar bo'lganda ham his-tuyg'ularni aniqlash va avtomatik identifikatsiyalashni ta'minlovchi intellektual modellar va avtomatlashtirilgan tizimlarni yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda ham mazkur yo'nalishda raqamli tasvirlarga dastlabki ishlov berish, tahlil qilish va tanib olishga mo'ljallangan dasturiy vositalarni ishlab chiqish va joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasida, jumladan «robototexnika komplekslari va odamlar o'zaro ta'sirining algoritmlarini ishlab chiqish, ma'lumotlar uzatish tarmoqlari infratuzilmasini, o'rnatilgan sensorlar va sensor tarmoqlarni takomillashtirish, shuningdek, «bulutli» xizmatlarini taqdim etishning turli xil modellarini amalga oshirish uchun dasturiy ta'minot yaratish bo'yicha ilmiy ishlarni olib borish»¹ hamda 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son «Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Prezident qarorining 2021-2022-yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarini o'rganish va joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar dasturida ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda jumladan, tasvirlarni sintezlash, tahlil qilish hamda yuz tasviri orqali his-tuyg'ularni aniqlash tizimlarini yaratish axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Ushbu masalalarni samarali yechish raqamli signallarga sun'iy intellekt texnologiyalari asosida ishlov berish model, usul va algoritmlarini, sun'iy texnologiyalari asosida his-tuyg'ularni tasniflash, o'ziga xos belgilar majmuasini ajratishni inobatga olgan holda rivojlantirish, shuningdek, yuz tasviri asosida hissiy holatlarni aniqlashga

¹O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079 «Raqamli O'zbekiston - 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni

mo'ljallangan avtomatlashtirilgan intellektual tizimlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, signallarni barqaror qayta ishlash, yuz morfologiyasi va ifodalari parametrlarini aniq aks ettiruvchi yondashuv va tanib olish sifati yuqori bo'lgan usul va algoritmlarini ishlab chiqishni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida», 2017-yil 29-avgustdagi PQ-3245-son «Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi loyihalarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349-son «Axborot texnologiyalari va kommunikatsiya sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079 «Raqamli O'zbekiston - 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlari, 2020-yil 28-apreldagi PQ-4699-son «Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora tadbirlari to'g'risida» Qarori, 2024-yil 14-oktabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-358-son Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. «Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish» ustuvor yo'nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bugungi kunda his-tuyg'ularni aniqlash, tasniflash va tanib olish sohasidagi ilmiy izlanishlar butun dunyoda keng miqyosda olib borilmoqda. Bu yo'nalishlarda model, usul va algoritmlarini ishlab chiqish hamda takomillashtirish masalalarini yechish, ularni amaliyotga joriy etish bo'yicha xorijiy olimlardan Pol Ekman, Maja Pantic, Hatice Gunes, Matti Kalevi Pietikainen, Catherine Pelachaud, Ioannis Pavlidis, Stock-Homburg R, Garcia J, Maithri M, Tarnowski P, Aya Hassouneh A, Andreu-Perez A, Ghimire D, Niu B, Liong S, Boughida A, Cruz A, Chen J, Lopes A, Kim D, Liang D, Sun N, Zhao-yi P, Zhang J, Akhand M kabi ko'plab xorijiy olimlar his-tuyg'ularni tanib olish sohasida izlanishlar olib borib, turli innovatsion yechimlar taklif etishgan.

O'zbekistonda tasvirlarni tahlil qilish va qayta ishlash, tasvirlardagi obyekt belgilarini shakllantirish, informativ belgilar majmuasini shakllantirish, timsollarni tanib olish va tasniflashni nazariy asoslarini rivojlantirishga M.M.Kamilov, Sh.X.Fozilov, S.S.Sodiqov, M.M.Musaev, R.X.Xamdov, D.T.Muxamediyeva, N.S.Mamatov, N.M.Mirzaev, S.S.Radjabov, Sh.Ye.Tulyaganov va boshqalar o'zlarining hissalarini qo'shganlar va qo'shib kelmoqdalar.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 046\23-sonli «Imkoniyati cheklanganlar uchun turli tillardagi nutqni matnga o'tkazish "RecSpeech_uz" platformasini ishlab chiqish» (2023-2024)

va AL-8624042489 “Kvant texnologiyalari asosida tibbiy-tashxis tasvirlarini qayta ishlash va tahlil qilish portalini ishlab chiqish” (2025-2026) mavzudagi loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi shaxsni yuz tasviri asosida uning his-tuyg‘ularini aniqlash algoritmlari va dasturiy majmuasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yuz tasviri asosida hissiyotlarni tanib olishning zamonaviy tizimlarini tahlil qilish;

his-tuyg‘ular bazalarini tadqiq qilish va shakllantirish;

yuz tasviri asosida his-tuyg‘ularni tanib olish uchun belgilar fazosini shakllantirish;

his-tuyg‘ularni tanib olish uchun informativ belgilar fazosini shakllantirish;

his-tuyg‘ularni tanib olish uchun neyron tarmoqli model ishlab chiqish;

yuz harakat birliklari asosida his-tuyg‘ularni tanib olish qoidasini ishlab chiqish;

yuz qismlari asosida his-tuyg‘ularni tanib olish algoritmini ishlab chiqish;

mavjud va taklif etilgan usul hamda algoritmlarni qiyosiy tahlil qilish nuqtai nazaridan tajribaviy tadqiqotlar o‘tkazish;

mavjud va taklif etilgan algoritmlar asosida his-tuyg‘ularni tanib olish dasturiy majmuasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti sifatida shaxsni yuz tasvirlari olingan.

Tadqiqotning predmetini shaxsni yuz tasviri asosida his-tuyg‘ularni tasniflash model, usul, algoritmlari hamda dasturiy ta’minoti tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Nazariy tadqiqotlar tizimli tahlil, imitatsion modellashtirish, ehtimollik nazariyasi, matematik statistika, diskret matematika, tasvirlarga ishlov berish, mashinali o‘qitish, chuqur o‘qitish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yuz qismlari xossa va xususiyatlarini inobatga olgan holda his-tuyg‘ularni aniqlash uchun belgilarni shakllantirish algoritmi ishlab chiqilgan;

his-tuyg‘ular sinflari o‘xshashliklarini inobatga olgan holda ularni tanib olish qoidasi ishlab chiqilgan;

yuz tasviridagi xalaqitlarni inobatga olgan holda yuz bo‘laklari bo‘yicha tanib olish algoritmi ishlab chiqilgan;

shaxsni yuz tasviri asosida his-tuyg‘ularini aniqlashning neyron tarmoq modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

his-tuyg‘ular belgilari hamda informativ belgilarni shakllantirish va tasniflashning algoritmik ta’minoti ishlab chiqilgan;

shaxsni yuz tasviri asosida his-tuyg‘ularni tanib olishni dasturiy majmuasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi algoritmlarni ishlab chiqishda shaxsni yuz tasvirlari asosida his-tuyg‘ularni tasniflash matematik apparatining to‘g‘ri qo‘llanilishi hamda tajribaviy tadqiqotlarning ijobiy natijalari bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati belgilarni shakllantirish, tasniflash va tanib olish nazariy asoslarini istiqbolli rivojlanishiga ishlab chiqilgan algoritmlarni hissa qo'shishi bilan izohlanadi. His-tuyg'ularni tanib olish uchun taklif etilgan belgi shakllantirish, tasniflash va tanib olish algoritmlari hamda qoidalariga ega avtomatlashtirilgan tizimlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan dasturiy majmua tasvirlarga raqamli ishlov berish, tasvirlar belgilarini shakllantirish va tasniflash orqali turli avtomatlashtirilgan tizimlarini yaratishda qo'llanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Shaxsni yuz tasviri asosida his-tuyg'ularni tasniflash yondashuv va algoritmlarini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalarni amaliy qo'llanilishi quyidagilardan iborat:

yuz tasviri asosida his-tuyg'ularni tanib olish uchun belgilar fazosini shakllantirish algoritmi shakllantirilgan, shuningdek uning asosida ishlab chiqilgan dasturiy majmua Namangan viloyati Chust tumani Qo'riqlash boshqarmasi amaliy faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Namangan viloyati hokimligining 2025-yil 15-oktabrdagi 02/10-4677-son ma'lumotnomasi). Natijada qo'riqlash xizmati xodimlari tomonidan fuqaroning hissiy holatini aniqlash va baholash jarayoniga sarflanadigan vaqt o'rtacha 10%ga qisqartirish imkonini bergan;

his-tuyg'ularni tanib olishning neyron tarmoq modeli taklif etilgan, shuningdek uning asosida ishlab chiqilgan dasturiy majmua Namangan viloyati Chust tumanidagi 10-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi amaliy faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Namangan viloyati hokimligining 2025-yil 15-oktabrdagi 02/10-4677-son ma'lumotnomasi). Natijada maktab o'quvchilari hissiy holatlarini baholashda 97% aniqlik bilan tasniflash imkonini bergan;

yuz harakat birliklari asosida his-tuyg'ularni tanib olish qoidasi asosida ishlab chiqilgan dasturiy majmua Namangan shahar "Istiqlol" texnika o'quv servis MChJ amaliy faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Namangan viloyati hokimligining 2025-yil 15-oktabrdagi 02/10-4677-son ma'lumotnomasi). Natijada avtomaktab tibbiy xodimi tomonidan bir o'quvchi hissiy holatini aniq baholashga sarflanadigan vaqtni o'rtacha 10%ga qisqartirish imkonini bergan, tanib olish aniqligi esa 98%ni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 30 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 17 ta maqola, jumladan 4 tasi xorijiy va 13 tasi Respublika jurnallarida nashr qilingan hamda 3 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy vositalarini qayd qilish guvohnomalari olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 108 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirishda dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olingan hamda tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslab berilgan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ko‘rsatilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish holati, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Inson his-tuyg‘ularini aniqlash yondashuvlari tahlili**» deb nomlangan birinchi bobi inson his-tuyg‘ularini aniqlashning mavjud yondashuvlari tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, unda his-tuyg‘ularni tanib olishda qo‘llaniladigan zamonaviy qurilmalar hamda dasturiy vositalar haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Shuningdek, ushbu bobda yuz tasviri asosida his-tuyg‘ularni tasniflashning hozirgi kunda keng qo‘llanilayotgan usul va algoritmlari tahlil etilib, ularni yutuq va kamchiliklari bayon etilgan. Bundan tashqari, his-tuyg‘ularni aniqlashning zamonaviy holati va istiqbollari keltirilib, ularni tanib olish tizimlari keng qo‘llanilayotgan sohalar hamda ularda hal etilayotgan masalalar va mavjud muammolar qisqacha bayon etilgan.

1.1-paragrafda yuz tasviri asosida his-tuyg‘ularni tasniflashning mavjud tizimlari tahlil etilgan bo‘lib, unda his-tuyg‘ularni aniqlash imkoniyatiga ega bo‘lgan tasvirga olish qurilmalari turlari va dasturiy vositalari haqida batafsil ma‘lumotlar bayon etilgan.

1.2-paragrafda yuz tasviri asosida his-tuyg‘ularni tasniflashni mavjud usul va algoritmlari tahlil etilgan bo‘lib, unda mashinali o‘qitish va neyron tarmoq yordamida his-tuyg‘ularni tanib olishni mavjud yondashuvlari bayon etilgan.

1.3-paragrafda his-tuyg‘ularni aniqlashning zamonaviy holati va istiqbollari yoritilgan bo‘lib, unda his-tuyg‘ularni tasniflash tizimlari qo‘llanish sohalarini, yondashuvlari yutuq va kamchiliklari bayon etilgan. Shuningdek, mazkur paragrafda kompyuter texnologiyalari va sun‘iy intellekt usullari rivojining his-tuyg‘uni tasniflash kelajagidagi ro‘li yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning «**Yuz tasviri asosida his-tuyg‘ularni aniqlash usul va algoritmlari**» deb nomlangan ikkinchi bobi 4 ta paragrafdan iborat bo‘lib, unda his-tuyg‘ularni aniqlash va tasniflashning mavjud usul va algoritmlari tahlil etilib, hozirgi kunda keng qo‘llanilayotgan yuz tasvirini segmentlash yondashuvlari qisqacha bayoni keltirilgan. Mavjud usul va algoritmlar tahlili asosida yuzni lokalizatsiyalash uchun samaradorligi yuqori bo‘lgan algoritmlar tanlab olingan. Shuningdek, yuz belgilarini aniqlash modellari, an‘anaviy usullari, neyron tarmoqli yondashuvlari, rivojlanish bosqichlari, yuz maxsus nuqtalarini aniqlash algoritmlari hamda maxsus nuqtalarni aniqlashdagi yangilik va g‘oyalar keltirilib, ular asosida yuz maxsus nuqtalarini aniqlash uchun asos sifatida Regression Tree ansambli tanlab olingan. Bundan tashqari, mazkur bobda his-tuyg‘ularni yuz maxsus nuqtalari asosida aniqlash algoritmlari va neyron tarmoq modellari keltirilib, ular asosida samaradorligi yuqori bo‘lgan model va algoritmlar dasturiy ta‘minot uchun asos sifatida tanlangan.

2.1-paragrafda yuz tasvirini segmentlash bosqichlari, ya'ni tasvirdagi yuz sohasini ajratib olish usul va algoritmlari tavsiflangan va tahlil etilgan.

2.2-paragrafda his-tuyg'ularni tanib olish uchun yuz maxsus nuqtalarini shakllantirish mashxur usullari o'rganilib, maxsus nuqtalarni aniqlashning mintaq va chuqur neyron tarmoqqa asoslangan usullari bayon etilgan.

2.3-paragrafda yuz maxsus nuqtalari asosida his-tuyg'ularni aniqlash algoritmlari tahlil etilib, ular bo'yicha batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

2.4-paragrafda yuz tasviri asosida his-tuyg'ularni aniqlashning zamonaviy neyron tarmoq modellari bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «**Yuz tasviri asosida his-tuyg'ularni aniqlash algoritmlarini ishlab chiqish**» deb nomlangan uchinchi bobi shaxsni yuz tasviri asosida his-tuyg'usini tanib olish algoritmlarini ishlab chiqishga bag'ishlangan bo'lib, unda yuz qismlari bo'yicha belgilarni shakllantirish, shakllantirilgan belgilar asosida tasniflash, sinflar o'zaro o'xshashligini inobatga olgan holda va yuz sohalari orqali his-tuyg'ularni tanib olish algoritmlari hamda yuz tasviri asosida his-tuyg'ularni tasniflashni gibridd neyron tarmoq modeli taklif etilgan.

3.1-paragrafda belgilar fazosini shakllantirish algoritmi taklif etilgan. Inson turli his-tuyg'uga ega bo'lganda uni ko'proq yuz ifodasi orqali vizual aniqlash mumkin. Yuz ifodalari orqali his-tuyg'ularni aniqlashda yuzning har bir qismi o'ziga xos xossa va xususiyatlarga ega bo'lganligi uchun ulardan tanib olish masalasini hal etishda alohida yoki birgalikda foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda qoshlar inson his-tuyg'ularini ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ushbu tadqiqotda dastlab qosh shaklini matematik ifodalash va u orqali qosh belgilarini shakllantirish uchun quyidagi bosqichlar amalga oshiriladi:

1-bosqich. Qosh joylashgan sohani ajratish. Bunda chap va o'ng qoshlarni segmentlash amalga oshiriladi;

2-bosqich. Belgi shakllantirish. Bunda qoshning chap chekka, o'ng chekka va markaziy nuqtasi maxsus nuqtalar sifatida olinadi (1-rasm). Olingan nuqtalar koordinatalarini mos ravishda $A_1(x_0, y_0)$, $A_2(x_1, y_1)$, $A_3(x_2, y_2)$ deb belgilanadi. Qosh shakli parabola shakliga yaqin bo'lganligi uchun belgi shakllantirishda quyidagi parabola tenglamasidan foydalaniladi:

$$y = ax^2 + bx + c \quad (1)$$

(1) parabola A_1, A_2, A_3 nuqtalardan o'tishi uchun quyidagi shartlarni bajarishi zarur:

$$\begin{cases} ax_0^2 + bx_0 + c = y_0 \\ ax_1^2 + bx_1 + c = y_1 \\ ax_2^2 + bx_2 + c = y_2 \end{cases} \quad (2)$$

(2) tenglamalar sistemasini yechish orqali noma'lum a , b va c koeffisientlar quyidagicha aniqlanadi:


$$a = \frac{y_0(x_1 - x_2) + y_1(x_2 - x_0) + y_2(x_0 - x_1)}{(x_0 - x_1)(x_0 - x_2)(x_1 - x_2)}$$

$$b = \frac{y_0(x_2^2 - x_1^2) + y_1(x_0^2 - x_2^2) + y_2(x_1^2 - x_0^2)}{(x_0 - x_1)(x_0 - x_2)(x_1 - x_2)} \quad (3)$$

$$c = \frac{x_1x_2y_0(x_1 - x_2) + x_0x_2y_1(x_2 - x_0) + x_0x_1y_2(x_0 - x_1)}{(x_0 - x_1)(x_0 - x_2)(x_1 - x_2)}$$

a, b, c koeffitsiyentlar qoshning egrilik darajasini ifodalagani uchun ulardan tasniflashda belgilar sifatida foydalanish mumkin.

Har bir qosh uchun alohida parabola quriladi va koeffitsiyentlari aniqlanadi. Ular asosida quyidagi belgilar vektori shakllantiriladi, ya'ni $[x_1, x_2, x_3]$ - chap qosh va $[x_4, x_5, x_6]$ - o'ng qosh uchun. Shakllantirilgan belgilar yagona belgilar vektoriga quyidagicha biriktiriladi: $X_{qosh} = (x_1, x_2, x_3, x_4, x_5, x_6)$.



1-rasm. Yuz qismlari va ularga mos koordinata o'qlari

Qosh belgilari his-tuyg'ularni tanib olish uchun yetarli bo'lmisligi mumkin. Shuning uchun qosh va yuzni boshqa qismlari belgilaridan foydalanish tavsiya etiladi. Yuz ifodalarini avtomatik aniqlashda inson ko'z holati va shakli muhim semantik axborot manbai hisoblanadi. Ko'z shakli va o'lchamlari hissiy holatga bog'liq holda sezilarli darajada o'zgaradi. Shuning uchun undan turli belgilarni shakllantirish mumkin. Quyida ko'z shaklini matematik ifodalash va u orqali ko'z belgilarini shakllantirish bosqichlari keltirilgan:

1-bosqich. Ko'z joylashgan sohani ajratish. Bunda chap va o'ng ko'zlarni segmentlash amalga oshiriladi;

2-bosqich. Belgi shakllantirish. Bunda ko'zning 4 ta, ya'ni 2 ta chetki, yuqori va quyi nuqtalari maxsus nuqtalar sifatida olinadi (1-rasm) va ular mos ravishda $A_4(x_0, y_0), A_5(x_1, y_1), A_6(x_2, y_2), A_7(x_3, y_3)$ kabi belgilanadi. Ko'z shakli ellipsoid bo'lganligi sababli, belgi shakllantirishda quyidagi ellips tenglamasidan foydalaniladi

$$\frac{x^2}{a^2} + \frac{y^2}{b^2} = 1, \quad (4)$$

bu yerda a va b mos ravishda ellipsning gorizontal va vertikal yarim o'qlari.

a va b parametrlar quyidagicha hisoblanadi:

$$a = \sqrt{(x_1 - x_3)^2 + (y_1 - y_3)^2},$$

$$b = \sqrt{(x_2 - x_4)^2 + (y_2 - y_4)^2}, \quad (5)$$

bu yerda x_1, y_1 va x_3, y_3 ko'zning chap va o'ng chekka nuqtalari, x_2, y_2 va x_4, y_4 ko'zning yuqori va past markaz nuqtalari.

(5) tenglamadan ellips parametrlari aniqlanadi va ular belgilar sifatida olinadi, ya'ni chap ko'z uchun $x_7 - a_1$, $x_8 - b_1$, o'ng ko'z uchun $x_9 - a_2$, $x_{10} - b_2$. Ko'zlar uchun umumiy belgilar vektori quyidagicha ifodalanadi:

$$X_{ko'z} = (x_7, x_8, x_9, x_{10}).$$

Burun markaziy va statik yuz komponenti bo'lganligi uchun uni xossa va xususiyatlari asosida yuz holatini yanada mazmunli ifodalash mumkin. Bunda burun osti chizig'i (1) orqali parabola ko'rinishida ifodalanadi va koeffitsiyentlari (2) yordamida aniqlanadi (1-rasm). Hisoblangan koeffitsiyentlar asosida quyidagi belgilar shakllantiriladi: $X_{burun} = (x_{11}, x_{12}, x_{13})$.

Insonda ayrim his-tuyg'ular yuzaga kelganda burun holati o'zgaradi. Bu esa his-tuyg'ularni tasniflashda undan foydalanish mumkinligini ko'rsatadi. Xususan, g'azab, ajablanish va nafrat kabilarda burun shakli ma'lum darajada o'zgaradi. Masalan, g'azablanganda burun usti qisqaradi va burun ko'prigi chuqurlashadi.

Og'iz holatining o'zgarishi his-tuyg'ularni tasniflashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, u ayniqsa quvonch, g'azab, hayrat va nafrat kabi hissiy holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Shuning uchun og'iz tashqi va ichki konturini aniq modellashtirish orqali sezgirligi yuqori bo'lgan ishonchli belgilarni shakllantirish mumkin. Og'iz konturlari elliptik shaklda bo'lganligi uchun ularni ellips bilan ifodalash maqsadga muvofiq hisoblanadi (1-rasm) va ular (4) formula orqali aniqlanadi. Bunda ichki ellips radiuslari tashqi ellips radiuslariga nisbatan kichikroq bo'ladi va ulardan his-tuyg'ularni tasniflashda belgilar sifatida foydalaniladi, ya'ni tashqi ellips bo'yicha $x_{14} - a_1$, $x_{15} - b_1$, ichki elips bo'yicha $x_{16} - a_2$, $x_{17} - b_2$. Og'iz uchun umumiy belgilar vektori: $X_{og'iz} = (x_{14}, x_{15}, x_{16}, x_{17})$.

1-rasm asosida shakllantirilgan qism belgilar, ya'ni $X_{qoshi} = (x_1, x_2, x_3, x_4, x_5, x_6)$, $X_{ko'z} = (x_7, x_8, x_9, x_{10})$, $X_{burun} = (x_{11}, x_{12}, x_{13})$, $X_{og'iz} = (x_{14}, x_{15}, x_{16}, x_{17})$ yagona belgilar vektoriga quyidagi tartibda birlashtiriladi va undan his-tuyg'ularni tasniflashda foydalaniladi:

$$X_{umumiy} = (x_1, x_2, x_3, x_4, x_5, x_6, x_7, x_8, x_9, x_{10}, x_{11}, x_{12}, x_{13}, x_{14}, x_{15}, x_{16}, x_{17}). \quad (5)$$

His-tuyg'ularni tasniflash uchun taklif etilgan belgilarni shakllantirish yondashuvi quyidagi turli tasniflagichlarda sinovdan o'tkazildi:

- SVM (Support Vector Machine). Bu yuqori aniqlikka ega bo'lgan, kichik o'lchamli belgilar bilan samarali ishlovchi tasniflagich.

- Random Forest (RF). Bu daraxtlar ansambli orqali qiymatlarni barqaror tasniflovchi usul.

- KNN (k-Nearest Neighbors). Bu belgilar fazosidagi qo'shni nuqtalarga asoslangan sodda va intuitiv algoritm.

- Decision Tree (DT). Bu sodda tuzilmali biroq, ma'lumotdagi timsollarni yaxshi aks ettiruvchi usul.

- MLP (Multilayer Perceptron). Bu sun'iy neyron tarmoqqa asoslangan, nohiziqli munosabatlarni modellashtirish qobiliyatiga ega bo'lgan algoritim.

Quyidagi jadvalda tajriba natijalari keltirilgan:

1-jadval

Tasniflagichlardan olingan natijalar

Tasniflagich	FER2013	KDEF
SVM	96	82
RF	82	74
KNN	77	63
DT	77	67
MLP	99	88

3.2-paragrafda sinflar o'zaro o'xshashligini inobatga olgan holda his-tuyg'ularni tasniflash usuli taklif etilgan. Odatda klassik yondashuvlar 7 sinfli modellardan foydalaniladi, biroq "qo'rquv" va "hayrat" yoki "neytral" va "g'azab" sinflar yuz ifodalarini tasniflashda chalkashliklar yuzaga keladi. Bu yuzdagi harakat birliklari (AU-action unit) yaqinligi bilan izohlanadi. Masalan, "qo'rquv" va "hayrat"da qosh ko'tariladi (AU1+AU2), ko'z keng (AU5) va og'iz ochiladi (AU26). R.Plutchik tomonidan taklif etilgan hissiyotlar g'ildiragi nazariyasida ushbu ikki hissiyot kognitiv va vizual jihatdan yaqin hisoblanadi va ularni kombinatsiyasi "hayrat-qo'rquv aralash hissi" sifatida qayd etiladi. Shuningdek, "neytral" va "g'azab" sinflarida ham chalkashliklar yuzaga keladi. Chunki neytral holda yuz muskullari harakatsiz bo'ladi. G'amgin xolda esa AU1 va AU15 faolligini minimalligi kuzatiladi.



2-rasm. R.Plutchik tomonidan taklif etilgan hissiyotlar g'ildiragi

Mavjud tajribalarning katta qismida his-tuyg'ularni aniqlash asosan 7 sinfli tasniflash modellari asosida amalga oshirilgan. Bunda ayrim sinflar, xususan, "qo'rquv" va "hayrat" yoki "neytral" va "g'azab" o'zaro vizual o'xshash bo'lganligi sababli chalkashliklar yuzaga keltirib, tasniflash aniqligining pasayishiga olib keladi. Bunday holatda chalkash sinflarni mavjudligi umumiy aniqlik ko'rsatkichlarini sezilarli darajada pasaytiradi. Quyida sinflarda yuzaga keladigan chalkashliklarni bartaraf etish va tasniflash aniqligini oshirish maqsadida his-tuyg'ularni tasniflash uchun sinflarni birlashtirish va ajratishga asoslangan yondashuv taklif etilgan.

Faraz qilaylik, $X = (x_1, x_2, \dots, x_n) \in R^n$ his-tuyg'ularni ifodalovchi vektor hamda


ularni $Y = \{Y_1, Y_2, Y_3, Y_4, Y_5, Y_6, Y_7\}$ sinflar to‘plami, ya’ni Y_1 -g‘azab, Y_2 -jirkanish, Y_3 -qo‘rquv, Y_4 -hursand, Y_5 -neytral, Y_6 -xafa, Y_7 -hayrat berilgan bo‘lsin.

Taklif etilgan yondashuvda dastlab chalkashliklarni yuzaga keltiruvchi sinflar juftligi o‘zaro birlashtiriladi, qolgan sinflar esa o‘z holicha qoldiriladi. Bunda “qo‘rquv” va “hayrat” sinflari yagona “qo‘rquv–hayrat” sinfiga, “neytral” va “g‘azab” sinflari esa yagona “neytral–g‘azab” sinfiga birlashtiriladi, ya’ni $Y_{3,7} = Y_3 \cup Y_7$, $Y_{5,6} = Y_5 \cup Y_6$. Shu tariqa umumiy sinflar soni 2 taga kamaytiriladi, ya’ni $Y' = \{Y_1, Y_2, Y_{3,7}, Y_4, Y_{5,6}\}$.

Taklif etilgan yondashuv bo‘yicha 7 ta sinfga tasniflash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1-bosqich. Belgilarni shakllantirish. Bunda his-tuyg‘ularni tasniflash uchun belgilar fazosi shakllantiriladi;

2-bosqich. O‘qitish. Mazkur bosqichda yuz tasvirlari asosida shakllantirilgan belgilar normallashtiriladi va quyidagi ko‘p qatlamli perseptronga (MLP) kiruvchi ma’lumot sifatida uzatish orqali o‘qitiladi (3-rasm);



3-rasm. Ko‘p qatlamli perseptron arxitekturasi

3-bosqich. Tasniflash. Bunda MLP asosidagi f_1 tasniflagich qo‘llaniladi:

$$\hat{Y} = f_1(X; \theta_1),$$

$$\hat{Y} = \arg \max_{Y \in Y} P(Y | X; \theta_1),$$

bu yerda θ_1 — MLP parametrlari.

Agar $\hat{Y} = Y_{3,7}$ bo‘lsa, u holda tasvir “qo‘rquv–hayrat” sinfiga, agar $\hat{Y} = Y_{5,6}$ bo‘lsa, u holda tasvir “neytral–g‘azab” sinfiga tasniflanadi va navbatdagi bosqichga o‘tkaziladi, aks holda esa 5-bosqichga yo‘naltiriladi;

4-bosqich. Qayta tasniflash. Bunda MLP asosidagi f_2 tasniflagich qo‘llaniladi:

$$\hat{Y}_{fine} = f_2(X; \theta_2), \hat{Y}_{fine} \in \{Y_3, Y_7\} \text{ yoki } \hat{Y}_{fine} \in \{Y_5, Y_6\}$$

$$\hat{Y}_{fine} = \arg \max_{Y \in \{Y_3, Y_7\}} P(Y | X; \theta_2) \text{ yoki } \hat{Y}_{fine} = \arg \max_{Y \in \{Y_5, Y_6\}} P(Y | X; \theta_2),$$

bu yerda θ_2 —qayta tasniflovchi MLP model parametrlari;

5-bosqich. Natijalar. Bunda natija quyidagi umumiy chiqish funksiyasi asosida taqdim etiladi:

$$\hat{Y} = \begin{cases} \hat{Y} & \text{agar } \hat{Y} \neq Y_{3,7} \text{ va } \hat{Y} \neq Y_{5,6} \\ \hat{Y}_{fine} & \text{agar } \hat{Y} = Y_{3,7} \text{ yoki } \hat{Y} = Y_{5,6} \end{cases}.$$

3.3-paragrafda yuz sohalari bo'yicha his-tuyg'ularni tanib olish algoritmi ishlab chiqilgan. Yuz qismlarini alohida tahlil qilish konsepsiyasi psixologiya va kompyuterli ko'rish ilmining kesishgan nuqtasida shakllangan. Facial Action Coding System (FACS) modelida yuz mushaklarining mayda harakatlari (Action Units — AU) orqali his-tuyg'ularning ifodalanishi ilmiy asoslangan.

Faraz qilaylik, $H = \{H_1, H_2, \dots, H_m\}$ his-tuyg'ular sinflari, $\Omega = \{\Omega_1, \Omega_2, \dots, \Omega_n\}$ yuz qism sohalari va ularga mos $X = \{X_1, X_2, \dots, X_n\}$ belgilar to'plami berilgan bo'lsin. Bunda $\Omega_i \cap \Omega_j = \emptyset$, n -yuz qismlari soni. $X^* = \emptyset$. Agar $X_i \neq \emptyset$ bo'lsa, u holda $X^* = X^* \cup \overline{X_i}$, $i = \overline{1, n}$.

Belgilar fazosi asosida his-tuyg'u sinfini aniqlash:

$$\varphi: \Omega \rightarrow H \text{ yoki } \varphi(X^*) = H.$$

Tanib olish masalasi tasniflash vazifasi sifatida quyidagicha yozish mumkin:

$$y_i = \arg \max_{h_i \in H} P(h_i | X^*),$$

bu yerda $P(h_i | X^*)$ - yuz qismlari belgilari berilganda, h_i his-tuyg'u ehtimolligi.

Ayrim qismlar his-tuyg'uni kuchliroq namoyon qiladi. Bu holat vaznlangan mexanizm orqali quyidagicha aks ettiriladi:

$$f = \sum_{i=1}^n w_i \cdot \varphi_i(\Omega_i), \quad \sum_{i=1}^n w_i = 1,$$

bu yerda w_i - i -chi yuz qismini his-tuyg'uni aniqlashdagi ahamiyat koeffitsienti.

Mazkur ishda his-tuyg'ularni 7 ta sinfi, ya'ni H_1 - g'azab, H_2 - nafrat, H_3 - qo'rquv, H_4 - hursand, H_5 - neytral, H_6 - xafa, H_7 - hayrat, Ω_1 - chap qosh, Ω_2 - chap ko'z, Ω_3 - burun, Ω_4 - og'iz, Ω_5 - o'ng ko'z, Ω_6 - o'ng qosh, yuz sohalariga mos belgilar, ya'ni $X_1, X_2, X_3, X_4, X_5, X_6$ komponentalari ishda keltirilgan usul yordamida hisoblanadi.

Algoritm bosqichlari:

1-bosqich. Yuzni qismlarga ajratish. Bunda yuz tasviri his-tuyg'ularni ifodalovchi qism sohalarga, ya'ni qosh, ko'z, burun va og'iz kabi sohalarga ajratiladi;

2-bosqich. Yuz qismlari uchun belgilarni shakllantirish. Bunda geometrik masofalar va approksimatsiyalangan yuz qismlari koeffitsientlari asosida belgilar vektori shakllantiriladi;

3-bosqich. Tanib olish. Bunda mavjud qismlar asosida shakllantirilgan belgilar orqali klassik yoki chuqur o'qitish usullari yordamida tanib olish amalga oshiriladi. Mazkur ishda klassik usullardan SVM, KNN, Random Forest va Decision

Treelardan foydalanilgan. Chuqur o‘qitishga asoslangan usullardan, ya’ni CNN turli qismlardan avtomatik xususiyat o‘rganish, RNN/LSTM vaqt ketma-ketligida yuz ifodalari o‘zgarishini tahlil qilish, Attention va Part-based CNN turli qismlarni alohida CNN orqali tahlil qilish, MLP va 1D-CNN maxsus nuqta vektorlari orqali o‘qitish maqsadida foydalanilgan.

Yuzni chap yoki o‘ng qismi bo‘yicha his-tuyg‘ularni tanib olish. Yuzning chap va o‘ng qismlari alohida tasniflangan. Tajribalardan ma’lum bo‘lishicha, chap yuz qismlari asosidagi modellarda ko‘p hollarda F1-measure, precision va recall ko‘rsatkichlari nisbatan yuqori qiymatlarni ta’minlaydi (xususan “g‘azab”, “qayg‘u” va “xursand” holatlarida).

3.4-paragrafda yuz tasviri asosida his-tuyg‘ularni tasniflashni gibril neyron tarmoq modeli taklif etilgan. Tadqiqot doirasida real vaqt rejimida yuz ifodalari orqali his-tuyg‘ularni aniqlash uchun samarali gibril neyron tarmoq modeli taklif etilgan bo‘lib, u ResNet va Depthwise-Separable CNN (DSCNN) neyron tarmoqlari asosida shakllantirilgan. Taklif etilayotgan gibril model hisoblash murakkabligini sezilarli darajada kamaytirib, yuqori aniqlikni ta’minlaydi. Model ikki asosiy qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismi rezidual bloklardan, ikkinchi qismi esa Depthwise-Separable bloklardan tashkil topgan. Quyida har bir qism bo‘yicha qisqacha ilmiy tavsiflar keltiriladi.

1. Rezidual bloklar. Bu neyron tarmoq chuqur o‘qitish imkoniyatini oshiradi va gradient so‘nish muammosini bartaraf etish uchun rezidual aloqalarni qo‘llaydi. Har bir rezidual blok 3×3 o‘ram, Batch Normalization va ReLU faollashtirish funksiyalaridan iborat. Blok o‘lchami o‘zgarganda shortcut o‘ram orqali ular o‘zaro tenglashtiriladi va ma’lumot oqimi tarmoq chuqur qatlamlaridan uzluksiz o‘tishini ta’minlaydi. Bu o‘qitish jarayoni barqarorligini saqlaydi.

2. Depthwise-Separable bloklar. Bu MobileNet tarmog‘iga o‘xshash bo‘lib, unda Depthwise va Pointwise Convolution amallari qo‘llaniladi.

Taklif etilayotgan gibril neyron tarmoq modeli arxitekturasi quyidagi jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Taklif etilgan gibril neyron model arxitekturasi

Bosqich	Tavsif	Chiqish o‘lchami
Kirish qatlami	$96 \times 96 \times 1$	(96, 96, 1)
Conv2D + BN + ReLU	O‘ram	(96, 96, 32)
Rezidual Block	32 filtr	(96, 96, 32)
Rezidual Block 2	64 filtr	(48, 48, 64)
Rezidual Block 3	128 filtr	(24, 24, 128)
Depthwise Block 1	256 filtr	(24, 24, 256)
MaxPooling2D	-	(12, 12, 256)
Depthwise Block 2	512 filter	(12, 12, 512)
Global Avg Pooling	Har bir kanalning o‘rtacha qiymati	(512,)
Dense (ReLU +Dropout)	256 neyron	(256,)
Dense (Softmax)	7 sinf	(7,)

2-jadvalda keltirilgan modelni o‘qitish quyidagi parametrlar asosida amalga

oshirildi.

- Batch size: 64;
- Epochs: 1000;
- Optimizer: Adam (learning rate = 0.001);
- Loss funksiyasi: categorical cross-entropy;
- Normalizatsiya: 1./255;
- Data augmentation: burish (10°), siljish (0.1), gorizontaal burish (horizontal flip).

Aniqlanishi lozim bo'lgan his-tuyg'ularga mos yuz tasvirlari 96×96 piksel o'lchamli bo'lib, kulrang tasvirlardan iborat va ulardan tarmoqqa kiruvchi ma'lumot sifatida foydalanildi. Model umumiy yuz tasvirlar bazasida 1000 ta epoxada o'qitildi. O'qitishda ma'lumotlar augmentatsiyalanib, sinflar disbalans muammosi bartaraf etildi. Taklif etilgan gibrid yondashuv asosida olingan natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Gibrid yondashuv natijalari

Epoch	Training Accuracy	Validation Accuracy	Training Loss	Validation Loss
50	67	60	1.00	1.10
100	79	65	0.72	1.05
500	84	67	0.63	1.02
